



ZAMONAVIY TARJIMASHUNOSLIKNING DOLZARB MUAMMOLARI

Komilova Shaxzoda

USWLU

Supervisor: Inamova Dilfuza

Annotatsiya. Tarjimonlik va tarjimashunoslik sohalari, til va madaniyatlararo muloqotning muhim jihatlari sifatida, global aloqalar va axborot almashinuvi rivojlanishida alohida ahamiyatga ega. Ushbu maqolada tarjimonlikning asosiy tamoyillari, tarjimashunoslikning nazariy asoslari va amaliy tadqiqotlari ko'rib chiqiladi. Tarjimonlar o'z faoliyatlarida tilni faqatgina so'zma-so'z tarjima qilish bilan cheklanmay, balki kontekstni, madaniy o'zgarishlarni va kommunikativ maqsadlarni hisobga olishlari zarur.

Kalit so'zlar: tarjimashunoslik, tilshunoslik, qadimiy matnlar, madaniyatlararo aloqalar, terminalogia, mustaqil imliy yo'nalish, global aloqalar, jurnal va maqolalar, jahon adabiyoti, tarjimaga doir qarashlar, avtomatlashtirilgan tarjima vositalari, onlayn platformalar, ijodiy faollik, jozibadorlik, Erkin Vohidov, tarjima tanqidi.

Tarjimashunoslik - tilshunoslikning bir bo'limi bo'lib, u tarjima jarayonini, tarjimonlarning faoliyatini va turli tillardagi matnlarni o'zaro o'rganishni o'z ichiga oladi. Dastlabki tarjimalar qadim zamonlardan boshlangan, xususan, miloddan avvalgi uchinchi asrda ko'plab qadimiy matnlarda, jumladan, Mesopotamiya va Misrda uchraydi. Tarjimaga va ushbu sohaga qadimdan ehtiyoj bo'lgan va u haligacha dolzarbligini yo'qotgan emas. Ushbu sohaning asosiy fenomeni tarjimonlar demakdir. Tarjimonlarning roli nafaqat so'zlarni o'zgartirishdan iborat, ular madaniyatlararo, xalqlararo ko'priklarni yaratadi, chunki har bir til o'zining tarixiy va madaniy kontekstiga ega. Undan tashqari har bir tilning o'ziga xos grammatikasi, leksikasi va sintaksi mavjud. Bu esa har qanday matnni boshqa tilga to'g'ri va aniq tarzda o'tkazish uchun qiyinchiliklar yaratadi. Shu bilan birga tarjima jarayonida terminalogiya ham muhim ahamiyat kasb etadi. Boisi har bir soha (tibbiyot, huquq, texnika) o'zining maxsus terminlarini talab qiladi. Tarjimashunoslik hozirda mustaqil ilmiy yo'nalish sifatida shakllandi va ko'pgina universitetlarda alohida fan sifatida o'qitilmoqda. Tarjimashunoslik nafaqat til biluvchilar uchun balki barcha insonlar uchun ahamiyatli sanaladi, chunki u global aloqalarni yanada kuchaytiradi va xalqlararo muloqotni rivojlantiradi.

O'zbekistonda keyingi salmoqli o'ttiz yilda ro'y bergan madaniy o'zgarishlarning asosiy omillaridan biri bu tarjimashunoslikdir. U mustaqil davlatning globallashuv jarayonlariga, bozor iqtisodiyotiga, ijtimoiy va siyosiy, madaniy hamda diplomatik sohalarga kirib borishi va uning ajralmas bir qismiga aylanib borishi bilan bog'liq. U bir qarashda madaniyatdek, yana bir qarashda muomala va munosabat mezonidek go'yo. Tarjima istiqlol yillardayoq kerakli deb topildi va yillar mobaynida uning shakllanishi ya'ni, taraqqiyot yo'llariga katta e'tibor qaratildi. Manashu e'tiborning amaliy namunasi sifatidan turli jurnal va maqolalar tashkil-



lashtirildi. Jahon adabiyotining yirik durdonalari; romanlari, qissalari, she`riyati, puplitsistikasi va estetikasi o‘zbek tiliga tarjima qilina boshladi. Aynan tarjimalar uchun “Jahon adabiyoti” nomidagi yirik adabiy-badiiy va ijtimoiy-siyosiy yo‘nalishdagi jurnal tashkil etildi. Ana o‘sha vaxtdan buyon tarjima ham, tarjimaga bo‘lgan qarashlar ham yangilanib, rivojlanib kelmoqda. Tarjima tili ham mamlakat xususida yangi madaniyat ruhini kasb etib milliy adabiy til doirasida rivojlanmoqda.

“Hozirgi zamonda tarjima nazariyasi va amaliyotini qiyosiy tilshunoslik, sotsiolingvistika, kongnitiv tilshunoslik, lingvosemiotika, lingvomadaniyatshunoslik, paralingvistika, psixolingvistika kabi sohalar bilan uzviy aloqador sifatida o‘rganish zarur. Chunki tarjimaning asosiy materiali til bo‘lib, u tilshunoslik fanining turli sohalari tomonidan inson faoliyatining til va undan tashqaridagi tarix, madaniyat, psixologiya, falsafa va etnografiya kabi fanlar bilan bog`lanishlarini hisobga olgan holda ikki tilni qiyoslash bilan ish ko‘radi... Tarjimashunoslik murakkab filologik fan sifatida qiyosiy tilshunoslik va adabiyotshunoslikni qamrab oladi... Binobarin, tarjimashunoslikka juda keng qamrovli, o‘z nazariyasi va metodlariga ega bo‘lgan fan sifatida qarash zarur. (Abduzuhur Abduazizov “Tarjimashunoslik istiqbollari”).

Ushbu soha vakillari tarjimashunoslikka fan va ilm sifatida qaraydi va aynan shu omillardan kelib chiqqan holda sohaning kelajagi, rivoji va istiqbollarini ko‘rib chiqadi va jamiyatdagi ahamiyatini belgilaydi. Respublikamiz hududida tarjimashunoslik masalalari va yosh tarjimonlarni yetishtirish so‘nggi yillarda Toshkent, Samarqaqnd, Jizzax, Qarshi va Buxoro universitetlarida markazlashmoqda. Fikrimcha, yosh tarjimonlarning yetishib chiqishida, ilmiy tarjima va tarjima nazariyasini rivojlantirishda Jahon tillari universiteti sezilarli darajada faol salohiyatga ega. Universitet kadrlar tayyorlash bilan birgalikda bir qancha tarjima nazariyasiga doir darslik va qo‘llanma, amaliyot dasturlarini katta tashabbus va xayrixohlik bilan nashrdan chiqaradi va bundan talabalar manfaatdor bo‘lishmoqda. Tarjimaga doir barcha qarashlar, unga bo‘lgan tanqidlar faqatgina ma`lum bo‘lgan “Jahon adabiyoti”, “Sharq yulduzi” yoki “Yoshlik” ning vazifasi emas. Barcha-barchaga tegishli bo‘lgan umumiyl madaniy hodisa demakdir. Shu tufayli barcha matbuot nashrlari bunga mas`ulyiat bilan e`tibor qaratishlari, haftalik, oylik va yillik to‘plamlar chiqarishlari maqsadga muvofiq ishdir. Universitet va institut talabalarining sa`y-harakati bilan dunyo yuzini ko‘rayotgan asarlarni esa haqiqiy ma`noda tarjima va tarjimashunoslik daftarlari, deyish o‘rinli. O‘ziga xos mukammallik xususiyatiga ega yo‘nalish chuqurroq va yorqinroq namoyon bo‘laverar ekan, tarjimaning sifati (saviyasi va jozibasi) tobora yaxshilanib va yangilanib, kitobxon va o‘quvchini o‘ziga jalb etaverishiga hech shubha yo‘q.

Tarjimonlar va tarjimashunoslarni sifatli ta`lim bilan ta`minlash, universitetlarda aynan shu dasturlarni yaxshilash, amaliy mashg`ulotlarni ko‘paytirish, doimiy malaka oshirish uchun seminar, konferensiya va treninglar tashkillashtirish, yangi metodologiya va texnologiyalar bilan talabalarni tanishtirish malakali kadrlar tayyorlovida yordam beradi. Undan tashqari, avtomatlashtirilgan tarjima vositalari (sun`iy intellekt mashinalari) yordamida tarjima jarayonining sifatini oshirish ham tarjimashunoslik sohasida mayjud bo‘lgan ayrim kamchiliklarga yechim bo‘lishi mumkin. Turli sohalar bo‘yicha yagona terminalogiya bazalarini yaratish va ulardan foydalanishni

kengaytirish ham maqsadga muvofiq foydali ishdir. Tarjimani boshqa fanlar (lingvistika, madaniyatshunoslik, psixologiya) bilan integratsiyalash yoki tarjimonlarning o‘zaro fikr almashishlari uchun onlayn platformalar yatarish orqali ham yangi yondashuvlarni rivojlantirish mumkin. Ushbu omillar soha vakillariga kelajakda yangi imkoniyatlar ochadi hamda mutaxassislarning rolini yanada oshiradi. Aslini olganda, mukammal tarjimaga tillarni mukammal bilish, katta lug`at boyligiga egalik, amaliy tajribalar, intensiv ijodiy faollik bilan erishiladi. Ammo satrlardagi jozibadorlikka aynan shu ko‘nikmalar orqali erishiladi deya olmaymiz. Buning uchun yana alohida tajriba hamda o‘z kasbiga bo‘lgan xurmat va muhabbat zarur. Mana shunday jozibadorlik Erkin Vohidov tarjimalarida mujassamlashgan:

“Do svidanya, drug moy, do svidaniya.

Miliv moy ti u menyq v grudi."

degan Yeseninning bir misrasiga qulog tuting va Erkin Vohidovni tinglang:

"Xavr endi xavr do 'stginam

*Kayt' chai, kayt' as signani,
Bag`rim dasan ko 'ngil malhami'"*

O‘zgarish va transformatsiyalar tashkil etdi tarjimani. Biroq ohang, biroq o‘zbekcha ifodalar o‘z aksini topdi! Pushkin o‘zbekchada shunday yozar edi: “...tarjima tanqidi o‘z tahlillarida shunga munosib bo‘lsin. Ruh, joziba, ohang yaratsin!”

References:

1. <https://harryclarktranslation.co.nz/blogs/grammatical-problems-of-translation>
<https://nauchniyimpuls.ru/index.php/noiv/article/view/9890>
<https://muegge.cc/cutestat.com/>
 2. [Equivalence Challenges in Machine Translation: An Analysis of Google Translate Output through Mona Baker's Theory 2011 and Post-Editing Strategies.pdf](#)